

## E-AUKSION PLATFORMASINING ISHLASH TARTIBI VA VAZIFALARI

“TIQXMMI” MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti staj. *Eshmurodova Sojida*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada biz hozirda yo`lga qo`yilgan E-auksion platformasining ishlash tartibi va vazifalari va oldi-sotti, yoki turli huquqlar asosida mulklarining berilishi yoritilgan.

**Аннотация:** В данной статье описывается порядок работы и функции созданной нами сейчас электронной аукционной площадки, а также купля-продажа или передача имущества на основании различных прав.

**Annotation:** This article describes the working procedure and functions of the E-auction platform, which we have set up now, as well as the purchase and sale, or the transfer of properties based on various rights.

**Kalit so`zlar:** Auksion, auksion g`olibi, tanlov ob`ekti, balansda saqlovchi, boshlang`ish narx, lot, operator, tanlov takroriy auksion yoki tanlov, xabarnoma, xaridor, boshlang`ich narx, shaxsiy lot raqami, normativ qiymat, kategoriya, filtr.

**Kirish.** Bilamizki yildan yilga texnika va texnologiyalarning rivojlangani sari kadastr obyektlarining asosiy qismini tashkil etuvchi tashkil etuvchi yer va bino-inshootlarning ham oldi-sotti jarayonlari sezilarli darajada o`smoqda. Bu esa o`z navbatida shu platformaning yaratilishi va ishga tushurilishiga turtki bo`ldi.

«E-AUKSION» elektron savdo platformasi (savdo maydoncha) O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda mol-mulkni realizatsiya qilish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3149-son qarori bilan tashkil etilgan.

**Usullar.** Elektron onlayn-auksionlar Internet tarmog`i orqali har qanday qurimadan ishtirok etish imkonini beradigan hamda buyurtmalarni qabul qilish va g`olibni aniqlash tartib-taomillariga aralashuvni istisno etadigan alohida dasturiy mahsulotdan foydalanilgan holda o`tkaziladi.

Dastlab, savdo maydonchada 2017 yil 1 sentabrdan boshlab sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda mol-mulkni realizatsiya qilish bo`yicha auksion savdolari elektron onlayn-auksionlar shaklida o`tkazilishi yo`lga qo`yilgan.

So`ng, tashkil etilgan elektron onlayn-auksion faoliyatini fuqarolarga ko`p qulayliklar yaratib o`zini oqlaganligi sababli O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va qarorlari, Hukumat qarorlari bilan tegishli boshqa sohalarga joriy etilib kelinmoqda.

Savdo maydoncha fuqarolar uchun elektron onlayn-auksionlarda keng ishtirok etish va quyidagi yo`nalishlar bo`yicha adolatli va shaffof savdolarda egalik va

foydalanish huquqlarini sotib olish imkoniyatini ta'minlash uchun mo'ljallangan, jumladan:

- Davlat ob'ekti (binolari) va ulushlari;
  - Ijara (davlat mulkini ijaraga berish, buyurtmachilar mulklarini ijaraga berish);
  - Ko'chmas-mulk;
  - Avtotransport va maxsus texnikalar;
  - Yer uchastkalari (tadbirkorlik, uy joy qurish, xususiylashtirish, qishloq xo'jaligini yuritish va ekotruzim uchun);
  - Qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olish huquqi;
  - Strategik turdagi foydali qazilmalarni qazib olish huquqi;
  - Noruda foydali qazilmalarni qazib olish huquqi;
  - Tozalash xizmatlari (daryolar o'zanlarini tozalash, hududlarni tozalash);
  - Ko'llar tizimidan foydalanish;
  - Tashqi reklama ob'ektlarini qurish va o'rnatish huquqi (yerlar va bino va inshootlarga qurish);
  - Radarlar o'rnatish joylari;
  - Og'irlik va gabaritlarni o'lchovchi statsionar shoxobochalar o'rnatish va boshqa mol-mulklar.
- Savdo maydonchani asosiy maqsadlari:
- jismoniy va yuridik shaxslarni buyurtmalariga asosan egalik va foydalanish huquqlari bo'yicha auksion va tanlov savdolarining qonuniyligi, shaffofligi va holisligini ta'minlash;
  - narx-navo manipulyatsiyasi va boshqa suiiste'molchiliklarga yo'l qo'ymaslik hamda ularning oldini olish;
  - elektron onlayn-auksionlar Internet tarmog'ida arizalarni qabul qilish va g'olibni aniqlash jarayonlariga har qanday aralashuvga yo'l qo'ymaydigan mexanizmini yaratish;
  - axborot xavfsizligi vositalari yordamida axborot butunligini va maxfiyligini ta'minlash.

Yuqorida keltirilgan yo'nalishlar auksion va tanlov savdolarini tashkil etish “Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish markazi” DUK tomonidan shaxslarning buyurtmasi bo'yicha tashkil etiladi. Ushbu Nizom Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) huzuridagi “Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish markazi” davlat unitar korxonasi tomonidan “Ye-auksion” elektron savdo platformasida elektron onlayn-auksion va tanlovlarni tashkil etish hamda o'tkazish tartibini belgilaydi.

Mazkur Nizomning elektron tanlov o'tkazish qismi dehqon xo'jaligini yuritish va yuridik shaxslarga qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun er uchastkalarini elektron tanlov orqali ijaraga berishga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Dehqon xo`jaligini yuritish va yuridik shaxslarga qishloq xo`jaligi maqsadlari uchun er uchastkalarini elektron tanlov orqali ijaraga berish tartibi Vazirlar Mahkamasining alohida qarorlari asosida belgilanadi.

“Ye-auksion” elektron savdo platformasi (keyingi o`rinlarda – savdo platformasi) – elektron onlayn-auksion va tanlovlarni tashkil etish hamda o`tkazish uchun zarur axborotni kiritish, saqlash va qayta ishlash, shuningdek, istagi bo`lgan jismoniy va yuridik shaxslarning bunday auksion va tanlovlar jarayoniga kirish hamda ularda qatnashish imkonini ta`minlaydigan axborot tizimi;


Quyida biz shu platformada ishlatiladigan eng asosiy terminlarga ta`rif beramiz:

- ❖ auksion g`olibi – lot bo`yicha eng yuqori sotib olish (ijaraga olish) narxini tasdiqlab, g`olib deb e`tirof etilgan ishtirokchi;
- ❖ auksion yoki tanlov ob`ekti – auksion yoki tanlov orqali sotiladigan (ijaraga beriladigan) mulk yoki huquq;
- ❖ auksion qadami – savdoda auksion ob`ekti boshlang`ich narxiga nisbatan belgilanadigan foiz;
- ❖ auksion qadamiga bog`lanmagan narx – auksion ob`ekti to`g`risida xabarnoma joylashtirilgan kundan boshlab ishtirokchi tomonidan ob`ektini sotib olish (ijaraga olish) bo`yicha auksion qadamiga bog`lanmagan (belgilangan auksion qadami miqdoridan kam bo`lmagan) holda taklif etilgan narx;
- ❖ balansda saqlovchi – sotiladigan (ijaraga beriladigan) auksion (tanlov) ob`ekti birlashtirilgan yuridik shaxs;
- ❖ boshlang`ich narx – auksion yoki tanlov ob`ektini savdoga qo`yishda buyurtmachi tomonidan yoki ushbu Nizomda keltirilgan tartibga asosan belgilangan narx;
- ❖ buyurtma – buyurtmachining auksion yoki tanlov ob`ektini sotish (ijaraga berish) bo`yicha auksion yoki tanlovni tashkil etish va o`tkazib berishni so`rab savdo platformasi orqali operatorga yuborgan elektron murojaati;
- ❖ buyurtmachi – auksion yoki tanlov ob`ektini sotish (ijaraga berish) bo`yicha savdo platformasida auksion yoki tanlovni tashkil etish va o`tkazib berish haqida buyurtma yuborgan jismoniy yoki yuridik shaxs;
- ❖ zakalat – ishtirokchi tomonidan auksion yoki tanlovda qatnashish uchun kafolat ta`minoti sifatida kiritiladigan pul mablag`lari;
- ❖ ishtirokchi – savdo platformasida ushbu Nizomda belgilangan tartibda ro`yxatdan o`tib, auksion yoki tanlovda qatnashish uchun ariza bergan jismoniy yoki yuridik shaxs;
- ❖ lot – buyurtmachi tomonidan auksion yoki tanlovda sotish (ijaraga berish) uchun savdoga qo`yilgan ob`ekt;
- ❖ lotga oid axborot – auksion yoki tanlov ob`ekti bo`yicha buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan ma`lumotlar va hujjatlar;


- ❖ ob’ektning baholangan qiymati – auksion ob’ektini baholash haqidagi hisobotda (baholash talab etilmaydigan holatlardan tashqari) yoki davlat ijrochisining mol-mulkni baholash to’g’risidagi qarorida yoxud sud qarorida ko’rsatilgan qiymat;
- ❖ operator – savdo platformasida auksion va tanlovni tashkil etish hamda o’tkazish vakolati berilgan “Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish markazi” davlat unitar korxonasi;
- ❖ tanlov takroriy auksion yoki – auksion yoki tanlov o’tkazilmagan deb topilgan hamda natijalari bekor qilinganda, qaytadan o’tkaziladigan auksion yoki tanlov;
- ❖ talabgor – savdolarda ishtirok etish istagini bildirgan va operatorning savdo platformasida ushbu nizom bilan belgilangan tartibda ro’yxatdan o’tkazilgan yuridik yoki jismoniy shaxs; tanlov g’olibi – tanlov hujjatlari mezon va shartlariga muvofiq eng yaxshi taklifni taqdim etgan ishtirokchi;
- ❖ tanlov shartlari – tanlovni o’tkazish tartibi, tanlov g’olibini aniqlash mezonlari, ishtirokchilarga qo’yiladigan investisiya va ijtimoiy yoki boshqa majburiyatlar va talablar yuzasidan buyurtmachi tomonidan belgilanadigan shartlar; (tanlov) ob’ektlari;
- ❖ savdo platformasidagi texnik uzilish – auksion yoki tanlov jarayonida bir yoki bir nechta ishtirokchining qatnashishini yoki mazkur Nizom talablari asosida operatorning xizmat ko’rsatish imkoniyatini cheklaydigan savdo platformasidagi texnik nosozliklar. tanlovning salohiyatli g’olibi – tanlov g’olibining taklifidan keyingi eng yaxshi taklifni taqdim etgan ishtirokchi;
- ❖ xabarnoma – savdo platformasida muayyan lot bo’yicha auksion yoki tanlov o’tkazilishi haqidagi axborot;
- ❖ xaridor – ob’ekt qiymatini to’liq to’lagan yoki buyurtmachi bilan ob’ektning oldi-sotdi (ijara) shartnomasini tuzgan savdolar g’olibi;
- ❖ shaxsiy kabinet – buyurtmachi yoki ishtirokchiga auksion va tanlovlarga buyurtma berish, ularda qatnashish, shaxsiy hisobni boshqarish, uning holati va boshqa statistik ma’lumotlarni ko’rish hamda operator tomonidan jo’natilayotgan xabarlar bilan tanishib borish imkonini beruvchi savdo platformasining maxsus bo’limi;
- ❖ shaxsiy hisobvaraqa – savdo platformasi ma’lumotlar bazasida ro’yxatga olingan, operatsiyalarni o’tkazish uchun ishtirokchi va buyurtmachi ro’yxatdan o’tganda avtomatik ravishda ochiladigan hisobvaraqa;
- ❖ elektron onlayn-auksion (keyingi o’rinlarda – auksion) – savdo platformasi orqali jismoniy va yuridik shaxslarga auksion ob’ektini sotish (ijaraga berish) bo’yicha narxni oshirib yoki tushirib borish tamoyilida onlayn o’tkaziladigan savdo shakli;

- ❖ elektron tanlov (keyingi o`rinlarda – tanlov) – savdo platformasi orqali tanlov ob`ekti bo`yicha tanlov hujjatlarining mezonlari va shartlariga muvofiq eng yaxshi taklifni taqdim etgan jismoniy yoki yuridik shaxsni tanlab olish jarayoni;
- ❖ eng past narx – auksion ob`ekti undan past qiymatda sotilishi mumkin bo`lmagan lot narxi;
- ❖ savdo platformasida lot qiymati to`liq to`lanishi talab etilmaydigan auksion (tanlov) ob`ektlari – qonunchilik hujjatlariga muvofiq ob`ekt qiymati bo`lib bo`lib to`lash mexanizmi va/yoki auksion (tanlov) g`olibi va buyurtmachi o`rtasida tuziladigan shartnomaga asosan to`lanishi belgilangan auksion.

Har qanday odam bu platformadan bemalol foydalanib, o`ziga kerakli bo`lgan mulk haqida ma`lumot olishi mumkin. Buning uchun Google yoki Telegramm platformasining o`zidanoq qidirish joyiga E-auksion deb yozish orqali topishi mumkin. Bu platformada ham boshqa platformalarda bo`lgani singari telefon raqami orqali ro`yxatdan o`tiladi



Shundan so`ng siz mulkka berilgan lot yoki hududni belgilash orqali obyektни topishingiz mumkin.



Bu o`z navbatida nechta qulayliklarni keltirib chiqaradi.

- ✓ oldi sotti jarayonlarining shaffof hamda hammaning ko`z o`ngida amalga oshishi ;
- ✓ oldinga qaraganda ish unumining sezilarli darajada o`shishi;
- ✓ xarajatlarning bir necha barobarga kamayishi ;
- ✓ ovoragarchiliklarning oldini olinishi;
- ✓ tizimda korrupsiya illatiga mutlaqo yo`l qo`ymasligi;
- ✓ har qanday shaxs xohlagan vaqtda jarayonlarni onlayn kuzatib o`tira olish imkoniyati;

**Xulosa.** Hozirgi jadal rivojlanayotgan davrda texnika va texnologiya kirib bormagan sohaning o`zi yo`q. Bu platformani ishlab chiqishdan asosiy maqsad bu xalqqa xizmat qilish, jamiyatda yanada shaffoflikni ta`minlashdir. Vaqt o`tib borar ekan yanada zamonaviy va sifatli dasturlar ishlab chiqarilaveradi va ularning hammasi xalq uchun xizmat qiladi. Prezidentimiz aytganlaridek ”Xalq idoralar uchun emas, idoralar xalq uchun ishlashi kerak”.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

- I. <https://e-auksion.uz/about-auction>.
- II. <https://t.me/s/onlineauksionuz>.
- III. <https://lex.uz/docs/-5819662>.
- IV. <https://kun.uz/uz/news/2022/01/15/elektron-onlayn-auksionlar>.